



QO'QON XONLIGI HARBIY MUDOFAA TIZIMINING
SHAKLLANISHI VA UNING HOLATI

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННО-ОБОРОНИТЕЛЬНОЙ
СИСТЕМЫ КОКАНСКОГО ХАНАТСТВА И ЕЁ СОСТОЯНИЕ

THE FORMATION OF THE MILITARY DEFENSE SYSTEM OF
THE KOKAN KHANATE AND ITS STATUS

Maxmudjonov Furqatjon

Qo'qon DU Tarix yo'nalishi

III bosqich talabasi

furqatjonmakhmudjonov@gmail.com

Tel: +998952407001

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo'qon xonligining harbiy tizimi va qo'shin tuzilmasi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. XVIII–XIX asrlarda mavjud bo'lgan harbiy boshqaruv tizimi, qo'shin tarkibi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Qo'qon, Shohruhbiy, Norbo'tabiy, Muhammad Alixon, Buxoro amirligi, Xiva xonligi.*

Аннотация.

В данной статье на основе исторических источников анализируется военная система и структура армии Кокандского ханства. Особое внимание уделяется системе военного управления и структуре армии, существовавшим в XVIII-XIX веках.



Ключевые слова: *Коканд, Шахрухбий, Норбутабий, Мухаммад Алихан, Бухарский эмират, Хивинское ханство.*

Abstract.

This article analyzes the military system and army structure of the Kokand Khanate based on historical sources. It examines the military administrative system and the composition of the army that existed during the 18th–19th centuries.

Keywords: *Kokand, Shahruxbiy, Norbutabiy, Muhammad Alikhan, Bukhara Emirate, Khiva Khanate.*

Kirish

Davlatchilik tarixi nuqtai nazaridan harbiy ish davlatning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. O'rta Osiyo tarixida harbiy soha doim hukmdorlar diqqat markazida bo'lgan. Ular o'zlarining ichki va tashqi siyosatlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan harbiy kuchlarga tayanib ish ko'rganlar. Asrlar davomida bu kuchlarni boshqarishning muayyan tizimi, uning turli bo'g'inlari shakllanib borgan. Ularga mos ravishda davlat harbiy qudratini saqlash uchun mas'ul etilgan shaxslarga beriladigan mansablar ko'lami ham aniqlanib borgan. Asrlar davomida shakllangan bu tizim o'zining asosiy xususiyatlarini XVIII - XIX asr birinchi yarmida ham saqlab qolgan. Harbiy ishning o'rganilishi bugungi kunda ham dolzarb, chunki u Markaziy Osiyo geosiyosiy tarixining muhim qismini tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda Qo'qon xonligi haqida ko'plab ishlar mavjud bo'lsa-da, harbiy jihatlariga bag'ishlangan batafsil tahlillar kam.

Asosiy qism

XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan yirik davlatlardan biri Qo'qon xonligi bo'lib, u siyosiy va harbiy jihatdan muhim o'rin tutgan. Xonlikning shakllanish jarayoni ichki kurashlar, qo'shni





davlatlar bilan raqobat va hududiy kengayish harakatlari bilan kechgan. Shu sababli mustahkam harbiy mudofaa tizimini yaratish davlat barqarorligining asosiy omillaridan biri bo'lgan. XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan bu davlat 1709-yilda o'zbek ming urug'idan bo'lgan Shohruxbiy tomonidan asos solingan bo'lib, XIX asrga kelib O'rta Osiyoning katta qismini qamrab olgan hududiy imperiyaga aylangan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy va madaniy markaz, balki harbiy strategiyaning asosiy punkti ham edi. Harbiy ish xonlikning butun hayotida markaziy o'rin egallagan, chunki u doimiy ravishda qo'shni Buxoro amirligi, Xiva xonligi bilan ziddiyatlarda bo'lgan, shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining kengayish siyosatiga duch kelgan. Dastlabki davrda harbiy kuchlar qabila va urug' lashkarlariga tayangan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida hudud kengayishi natijasida muntazam harbiy tuzilmani shakllantirish zarurati tug'ildi. Qo'qon xonligiga asos solgan Ming urug'i vakillari Shohruhbiy vorislari dastlabki yillardanoq mamlakat sarhadlarini kengaytirish, davlat harbiy qudratini mustahkamlash maqsadida muhim qadamlar qo'ygan. Ular yangi tashkil topgan davlat tomonida amalga oshirilgan barcha ichki va tashqi siyosatda ma'lum miqdorda harbiy qo'shinga tayanib ish ko'rganlar. Bu o'rinda Qo'qon xonligida qo'shin qanday edi, uning tuzilishi va tarkibi, jangovarligi davlat siyosatini amalga oshirishga qodir edimi, degan savol tug'ilishi mumkin. XIX asrdagi ko'plab rus sayyohlari va mualliflari o'z asarlarida Qo'qon xonligi muntazam qo'shinga ega emas, xonlikda nomuntazam qo'shin mavjud bo'lib, u faqat yurishlar oldidan to'plangan degan fikrlarni ilgari suradilar. Darhaqiqat, ushbu fikrlar ham bejiz emas. Qo'qon xonligi harbiy tizimida muntazam qo'shindan soni jihatidan ortiqroq bo'lgan, harbiy harakatlar vaqtida to'plangan nomuntazam qo'shinlar - "qora cherik" va "qora qozon"ning o'rni katta edi. Bu esa o'z navbatida XIX asr rus mualliflarining xonlikda muntazam qo'shin bo'lmagan degan noto'g'ri xulosa chiqarishiga sabab



bo'lgan. Norbo'tabiy davridayoq mavjud bo'lgan qal'a va chegaradagi bo'linmalar muntazam qo'shinning asosi bo'lib xizmat qilgan. Qo'qon xonligi armiyasining tuzilishi xonlikning siyosiy va ijtimoiy tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u markazlashgan boshqaruvga asoslangan edi. Armiya ikki asosiy komponentdan iborat bo'lib, muntazam qo'shinlar va nomuntazam qo'shinlar. Muntazam qo'shinlar xonning shaxsiy gvardiyasi va doimiy harbiy birliklarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning soni xonlikning eng rivojlangan davrida 20-30 ming kishiga yetgan. Bu qo'shinlar asosan ming, qipchoq va yuz urug'laridan to'plangan bo'lib, ularning rahbarlari - beklar, biylar va mingboshilar - xon tomonidan tayinlangan va nazorat qilingan. Muhammad Alixon Qo'qon xonligi tarixida markazlashuv siyosatini kuchaytirgan va harbiy islohotlar o'tkazgan hukmdorlardan biri sifatida taniladi. Uning davrida davlat hududi kengaytirildi, ichki tartib mustahkamlandi va eng muhimi - muntazam qo'shin tuzishga alohida e'tibor qaratildi. Muhammad Alixon va Umarxon davrida markaziy hokimiyat kuchaytirilib, harbiy tizim tartibga solindi. Qo'qon xonligi qo'shini otliq qo'shin, piyoda askarlar, to'pchilar va qal'a garnizonlaridan iborat edi. Harbiy boshqaruv tizimida mingboshi, amirlashkar, qo'shbegi, botirboshi, voliy, qa'labon, qo'rboshi, yovar, yuzboshi va panjohboshi kabi lavozimlar mavjud bo'lib, ular intizom va boshqaruvni ta'minlagan. Yirik shaharlarda mustahkam devorlar va darvozalar qurilgan. Chegara hududlarida qal'alar barpo etilib, ular orqali Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan bo'lgan harbiy to'qnashuvlarda mudofaa choralari ko'rilgan. Muhammad Alixon davrida yangi qal'alar qurilib, qurol-yarog' zahiralarini oshirilgan. Dastlab qilich, nayza, kamon kabi an'anaviy qurollar qo'llanilgan. Keyinchalik o'qotar qurollar va to'plar joriy etilgan. Qurol-yarog'ning bir qismi tashqi savdo orqali keltirilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligining harbiy mudofaa tizimi davlatning siyosiy barqarorligi va hududiy yaxlitligini ta‘minlashda hal qiluvchi omil bo‘lgan. XVIII asr boshlarida Shohruxbiy tomonidan asos solingan davlat dastlab qabila lashkarlariga tayangan bo‘lsa-da, hududiy kengayish va tashqi xavflar kuchayishi natijasida muntazam harbiy tuzilma shakllantirish zarurati tug‘ildi. Umuman olganda, Qo‘qon xonligining harbiy tizimi o‘z davri uchun yetarli darajada shakllangan bo‘lib, ichki tartibni saqlash va tashqi xavflarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan manba adabiyotlar:

1. Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix (Tarix yulduzlari)-Toshkent–2014.
2. Мирзоолим Мушриф Қўқон хонлиги тарихи-1995
3. Tursunov B. Qo‘qon xonligida harbiy ish va qo‘shin: holati, boshqaruvi, an‘analari (XIX asrning 70 yillarigacha). – T. 2006.
4. Haydarbek Bobobekov. Qo‘qon Tarixi. - T: Fan, 1996.
5. Ikromjon Kuzikulov Qo‘qon xonligi tarixi.-Namangan 2014